

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

DEXKONOV RAXMATILLA SULTONOVICH

**TURP, TOPINAMBUR, ZUFO VA AYIQTOVON O‘SIMLIKLARI
ASOSIDA SHIFOBAXSH TOVARLAR OLISH HAMDA ULARNI
SINFLASH**

**02.00.09 -Tovarlar kimyosi
14.00.41– Xalq tabobati**

**KIMYO FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Andijon – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)
Contents of dissertation abstract of doctor sciences (DSc)

Dexkonov Raxmatilla Sultonovich

Turp, topinambur, zufo va ayiqtovon o‘simliklari asosida shifobaxsh tovarlar olish hamda ularni sinflash 3

Дехконов Рахматилла Султонович

Получение и классификация лекарственных товаров на основе растений редис, топинамбур, котовник и лютик 29

Dekhkonov Rakhmatilla Sultonovich

Preparation and classification of medicinal products based on the plants of radish, Jerusalem artshoke, catnip and buttercup 55

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 59

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

DEXKONOV RAXMATILLA SULTONOVICH

**TURP, TOPINAMBUR, ZUFO VA AYIQTOVON O‘SIMLIKLARI
ASOSIDA SHIFOBAXSH TOVARLAR OLISH HAMDA ULARNI
SINFLASH**

**02.00.09 – Tovarlar kimyosi
14.00.41 – Xalq tabobati**

**KIMYO FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Andijon – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.DSc/K214 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Fan doktori dissertatsiyasi Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.adu.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta‘lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Asqarov Ibrohim Rahmonovich
kimyo fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Abdulloyev Obidjon Shaxobidinovich
kimyo fanlari doktori (DSc), professor
Abdug‘aniyev Baxtiyorjon Yormuhammadovich
kimyo fanlari doktori (DSc), professor
To‘rayev Zokirjon
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Farg‘ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat universiteti huzuridagi DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil “07” 07 soat 10⁰⁰ da majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 170100 Andijon sh., Universitet ko‘cha. 129. Tel.: (99877)223 88 30, faks: (99874) 223 84 33

Dissertatsiyasi bilan Andijon davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon sh., Universitet ko‘ch. 129. Tel.: (99877) 223 88 30, faks : (99874) 223 84 33) e-mail: agsuinfo@edu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil “25” 06 kuni tarqatildi.
(2025 yil 25.06 da № 56 raqamli reestr bayonnomasi).



Sh.M.Kirgizov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, k.f.d., professor

M.M.Mo‘minjonov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, k.f.d., dotsent

M.M. Xojimatov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, k.f.d., professor

Kirish (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Disertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda aholi salomatligini ta'minlashda dorivor o'simliklardan ajratib olinadigan tabiiy va inson salomatligiga bezarar bo'lgan yangi biologik faol moddalarni ajratib olish hamda tarkibini kimyoviy jihatdan tahlil qilish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bu borada, tabiiy dorivor vositalar manbai bo'lgan yangi o'simlik turlarini izlash, ulardan biologik faol birikmalarni ajratish, tarkibi va tuzilishini aniqlash, ular asosida samarali dori vositalari va biologik faol qo'shimchalarni yaratish hamda ularni xalq tabobatida qo'llash muhim ahamiyatga ega.

Jahonda inson organizmidagi immun tizimi va yurak –qon tomir tizimi bilan bog'liq murakkab kasalliklarni davolashda sintetik dori vositalari va tabiiy oziq ovqat qo'shilmalari ishlab chiqish, ularning kimyoviy tarkibini aniqlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, organizmni turli infeksiyalarga qarshi himoya tizimini rag'batlantiradigan, qonni kislorod bilan to'yinishiga yordam beradigan, turli saraton hujayralarining rivojlanishini to'xtatadigan, organizmni yoshartiradigan, immun tizimini mustahkamlaydigan tabiiy kimyoviy birikmalar saqlagan o'simlik navlarini aniqlash, ular asosida kasalliklarni xalq tabobati usullari bilan davolash va oldini olishda sintetik dori vositalariga yordam sifatida qo'llaniluvchi, tarkibida lizotsim, vitaminlar, makro- va mikroelementlar, flavanoidlar, aminokislotalar, polisaxaridlar kabi tabiiy birikmalar saqlagan tabiiy oziq-ovqat qo'shilmalarini yaratish, ishlab chiqarish, TIF TN bo'yicha sinflash, hamda amaliyotga joriy etishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda inson organizmidagi yurak-qon tomir, immun tizimi, nafas yo'llari bilan bog'liq kasalliklarni oldini olish va davolash xususiyatiga ega bo'lgan o'simliklar asosida tabiiy biologik faol oziq-ovqat qo'shilmalari ishlab chiqilib, kimyoviy tarkibi asosida sinflash borasida nuayyan natijalarga erishilmoqda. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida¹ "Farmatsevtika sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 3 barobar ko'paytirish va mahalliy bozorni ta'minlash darajasini 80 foizga yetkazish" bo'yicha amalga oshirilishi muhim bo'lgan vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, *Raphanus Sativus L.*, *Helianthus Tuberosus L.*, *Nepeta Olgae Regel L.* va *Ranunculus Repens L.* mahalliy dorivor o'simliklar asosida tarkibida inson organizmi uchun foydali birikmalar saqlagan, antioksidant, yurak-qon tomir kasalliklarini davolash va oldini olish xususiyatini namoyon qiluvchi birikmalar saqlagan, organizm immunitetini ko'taruvchi, bezarar, tabiiy oziq-ovqat qo'shilmalarini yaratish, shuningdek, ularning kimyoviy tarkibi, tuzilishi, xossalari o'rganish hamda TIF TN bo'yicha tovar kodlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 12 oktyabrdagi PQ-3968-son «O'zbekiston Respublikasida xalq tabobati sohasini tartibga solish chora-

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni

tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni, 2017 yil 7 noyabrdagi PF-5229-son “Farmatsevtika tarmog‘ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. “Kimyo texnologiyalar va nanotexnologiyalar” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi¹

Dorivor o‘simliklardan biologik faol qo‘shimchalarni olish va ularning tadqiqotiga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlarida hamda oliy ta‘lim muassasalarida, jumladan, Institute of Chemistry, External Circuit Serial Number, University of Ciudad, Mexico Laboratory of Neuropharmacology of Natural Products (Ispaniya), Spain Department of Inorganic Chemistry (Ispaniya), University of Chester (Buyuk Britaniya), Nestle Research Center, (Shvetsariya), Wageningen University and Research (Niderlandiya), Lovely Professional University (Hindiston), Zhengzhou Research Base, University Zhengzhou (Xitoy), Marmara University, Faculty of Pharmacy (Turkiya), Institute for Sustainability and Circular Economy, Texas Tech University (AQSH), M.V. Lomonosov nomidagi MGU (Rossiya), Xitoy Xalq Respublikasining Shinjon etno-tibbiyot muhandislik va texnologiya markazi, Tojikiston Milliy Fanlar Akademiyasining “Tabiiy mahsulotlarning Xitoy-Tojikiston innovatsion markazi”, O‘zbekiston milliy universiteti, O‘zbekiston Respublikasi FA “O‘simlik moddalari kimyosi” instituti, Bioorganik kimyo institutida olib borilmoqda.

Dorivor o‘simliklarning kimyoviy tarkibini aniqlash va qayta ishlash tadqiqotlari natijasida bir qator natijalar olingan: jumladan, shifobaxsh o‘simliklar asosida dorivor birikmalar olingan (University of Ciudad, Mexico Laboratory of Neuropharmacology of Natural Products, Ispaniya); dorivor o‘simlik navlari tarkibidagi makro- va mikroelementlarning miqdorini aniqlash usullari ishlab chiqilgan (Dipartimento di Chimica Industriale “Toso Montanari”, Università di Bologna, Italiya); shifobaxsh o‘simliklar asosida mikroelementlarga boy tabiiy oziq-ovqat qo‘shimchalari olingan (Bialystok University of Technology, Faculty of Civil Engineering and Environmental Sciences, Department of Chemistry, Polsha); tarkibida tabiiy biologik faol birikmalar saqlagan o‘simlik ekstraktlari bilan oziq ovqat mahsulotlarini boyitish texnologiyasi yaratilgan (Wageningen University and Research Niderlandiya, Lovely Professional university, Hindiston); Antivirus ta’sirga ega birikmalarni o‘simliklardan ajratib olish usullari ishlab chiqilgan (State Key Laboratory of Coordination Chemistry, Nanjing University, Xitoy); ayrim

² Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi <http://www.scholar.google.com>, <http://www.sciencedirect.com>, <http://dmpe.aut.ac.ir> <http://www.ichp.pl> va boshqa manbaalar materiallari asosida tayyorlangan.

mahalliy o‘simlik navlari tarkibidagi birikmalarning tarkibi va tuzilishi aniqlangan (O‘simlik moddalar kimyosi instituti, O‘zbekiston).

Dunyoda shifobaxsh o‘simlik navlari asosida inson organizmidagi yurak-qon tomir, immun tizimi bilan bog‘liq kasalliklarni davolash va oldini olish xususiyatiga ega tabiiy preparatlar ishlab chiqish hamda ularni amaliyotga joriy etish bo‘yicha qator ustivor yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda, jumladan, shifobaxsh o‘simliklar tarkibidan biologik faol moddalarni ajratib olish; olingan birikmalarning tarkibi va tuzilishini fizik-kimyoviy metodlar yordamida aniqlash, ularning biologik faolligi va fizik-kimyoviy xossalari aniqlash; o‘simliklar tarkibidagi turli biologik faollikka ega bo‘lgan flavonoidlarni aniqlash va ajratib olish; oziq-ovqat mahsulotlari tarkibini makroelementlar saqlagan o‘simlik ekstraktlari bilan boyitish; shifobaxsh o‘simlik konsentratlari va ekstraktlari yordamida ayrim yurak-qon tomir, asab tizimi kasalliklarini davolash va oldini olish; shifobaxsh o‘simliklardan ajratib olingan tabiiy birikmalar asosida oziq ovqat qo‘shilmalari olish.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dorivor o‘simliklardan biologik faol moddalar ajratib olish, biologik faol oziq-ovqat qo‘shilmalari yaratish bo‘yicha jahonda ko‘plab olim va amaliyotchilar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

Jumladan, L.Sazanova, A.R.Stankyeovich, E.A.Vilasova, A.N.Tonamarev, A.A.Fedarov, Z.T.Artyunenko, Kirpichnikov, G.P.Yakovlev, T.Rezanka, V.N.Shibayev, A.A.Rade, Warwick, A.V.Sanin *Raphanus Sativus* L. va *Helianthus Tuberosus* L. o‘simliklaridan biologik faol moddalarini ajratish va tahlil qilish, P. Bhardwaj, A. Naryal, S. Saxena, Sh., M. Okasaka, F. Ramos, Zhi-Yuan, Wei-Ming, Kurmakov A.G., Belolipov I.V., Orexov A.P, Vergeychik E.N., Mathur K., Ganeeva L.A., Vasfilova E.S., Suthar P., Manfred Hesse, Tadeusz Aniszewski, Shang X., He X., He X., Li M., Zhang R., To Dao Cuong, Tran Manh Hung, Joo-Sang Lee *Nepeta Olgae Regel* L o‘simligi kimyoviy birikmalarini, ularning biologik ta’sir ko‘rsatish samaradorligi va mexanizmlarini, O.S.Sodiqov, A.X.Xaitbayev, E.T. Berdiyev, M.X. Xakimova, G.B.Maxmudova, E.T.Axmedov, X.N.Aripov, V.M.Malikov, S.F.Aripova, A.Nabiev, E.X.Botirov, I.R.Asqarov, A.A.Ibragimov, SH.V.Abdullayev, SH.SH.Sagdullayev, E.N.Novruzov, (O‘zbekiston) *Brassicaceae*, *Asteraceae* va *Lamiaceae* turkumi va boshqa dorivor o‘simliklar, ulardan olinadigan mahsulotlar, ularning kimyoviy tarkibi, ayrim komponentlarining biokimyoviy jarayonlardagi ishtiroki bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Bugungi kunga qadar biologik faol oziq-ovqat qo‘shilmalar sifatida o‘simliklarning turli vegetativ organlari tabiiy holatida, ekstraktlar shaklida, alohida biologik va kimyoviy substratlar holida amaliyotda qo‘llanishi yuzasidan ayrim tadqiqotlarda ma’lumotlar keltirilganiga qaramay, *Raphanus Sativus* L., *Helianthus Tuberosus* L., *Nepeta Olgae Regel* L. va *Ranunculus Repens* L. o‘simliklarining komponentlari hamda boshqa dorivor o‘simliklar tarkibiy qismlaridan yangi mahsulot–biologik faol oziq-ovqat qo‘shilmalarning o‘ziga xos brendlarini yaratilishi borasida deyarli chuqur izlanishlar olib borilmagan hamda

ularga kimyoviy tarkibi asosida Tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi (TIF TN) bo'yicha yangi kod raqamlari ishlab chiqilmagan.

Mazkur tadqiqot ishi dorivor o'simliklar, xususan, mahalliy sharoitlarga yetishtirilgan *Raphanus Sativus* L., *Helianthus Tuberosus* L., va respublikamizda hamda Namangan viloyatida yovvoyi holda keng tarqalgan *Nepeta Olgae Regel* L. va *Ranunculus Repens* L. o'simliklarining tarkibiy qismlari, efir moyi, barglari, gullari asosida immun tizimining faolligini oshirish, qonni kislorod bilan to'yintirishga yordam berish, ishtahani ochish va xazm qilishni yaxshilash, ichak faoliyatini yaxshilash, atrof-muhit noqulay omillariga organizm qarshiligini oshirish, infeksiyalarga qarshi himoya kuchlarini rag'batlantiruvchi, yallig'lanish, shamollashni rivojlanishini bartaraf etuvchi biologik faol oziq-ovqat qo'shilmalari yaratish, ularning kimyoviy tarkibini aniqlash asosida TIF TN bo'yicha yangi tovar kodlarini ishlab chiqishdan iborat.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat universitetining "Mahalliy o'simliklardan fiziologik faol moddalar ajratish va tadqiq etish" ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. *Raphanus Sativus* L., *Helianthus Tuberosus* L., *Nepeta Olgae Regel* L. va *Ranunculus Repens* L. o'simliklari tarkibidan biologik faol birikmalarni ajratib olish, yuqori biologik faollikka ega bo'lgan moddalar asosida yangi biologik faol oziq-ovqat qo'shilmalari yaratish hamda ularni kimyoviy tarkibi asosida TIF TN bo'yicha yangi tovar kod raqamlarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Raphanus Sativus L., *Helianthus Tuberosus* L., *Nepeta Olgae Regel* L. va *Ranunculus Repens* L. o'simliklarining sifat ko'rsatkichlarini o'rganish va ekologik jihatdan bezarar ekanligini aniqlash;

ushbu o'simliklarining biologik faol birikmalarini: efir moylari, flavonoidlar, lipidlar, aminokislotalari, suvda eruvchan vitaminlari va uglevod tarkibini o'rganish;

o'simliklarning tarkibidan ajratib olingan ekstrakt va sof holatdagi birikmalarni sifat va miqdor jihatdan tahlil qilish;

o'simliklarning noorganik tarkibi makro- va mikroelementlar miqdorini aniqlash;

o'simliklar ekstraktlarining *in vitro* sharoitida antioksidant faolligini baholash hamda shu asosida xalq tabobatida qo'llaniladigan shifobaxsh yangi oziq-ovqat qo'shilmalari ishlab chiqish;

o'simliklar ekstraktlarining istiqbolda dori vositalari yoki biologik faol qo'shimchalar olish uchun foydalanishga tavsiya etish maqsadida *in vivo* sharoitida biologik faolligini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish;

yangi oziq-ovqat qo'shilmalarini ishlab chiqarishga joriy etish uchun zarur me'yoriy hujjatlar ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

tadqiqot ob'ektlaridan yangi yuqori biologik faollikka ega bo'lgan "AS ZUFO" va "ASTOP" oziq-ovqat qo'shilmalari yaratish hamda TIF TN bo'yicha xalqaro tovar kodlari ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida O'zbekiston florasidagi *Raphanus Sativus* L., *Helianthus Tuberosus* L. o'simliklarining ildiz mevalari va *Nepeta Olgae Regel* L. va *Ranunculus Repens* L. o'simliklarining yer ustki qismi tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti *Raphanus Sativus* L., *Helianthus Tuberosus* L. o'simliklarining ildiz mevalari ekstraktlari va *Nepeta Olgae Regel* L., *Ranunculus Repens* L. o'simliklarining yer ustki qismi efir moylari va ekstraktlari tarkibidagi biologik faol moddalari asosida tayyorlangan "ASZUFO" va "ASTOP" oziq-ovqat qo'shilmalari, ularga texnik yo'riqnomalar hamda TIF TN bo'yicha xalqaro tovar kod raqamlari ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida kimyoviy (ekstraksiya, yupqa qatlam xromatografiya, fraktsiyalarga bo'lish, dekantatsiya, kristallash va qayta kristallash, gidroliz), fizik-kimyoviy, fizikaviy (UB-ul'trabinafsha, IQ-infra qizil spektroskopiya, ¹H-YaMR, ¹³C-YaMR spektroskopiya, GX-gaz xromatografiya, GX-MS-gaz xromato-mass-spektrometriya, YuSSX-yuqori samarali suyuqlik xromatografiya, NAT-neytron-aktivatsion tahlil va RTT- rentgen tuzilish tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Raphanus Sativus L. va *Helianthus Tuberosus* L. o'simliklari tarkibidagi: glikozidlar, oshlovchi moddalar, polifenollardan (rutin, salitsil kislotasi, kversitin, apigenin), lizotsim, inulin, pektin, efir moylari, suvda eruvchan vitaminlar mavjudligi sifat reaksiyalari va elementlar analizi, titrimetrik, potensiommetrik, xromatografik, spektroskopik usullari orqali isbotlangan;

Nepeta Olgae Regel L. o'simlik turidan jami 7 ta birikma sof holda ajratib olingan va ularning tuzilishi UB-ul'trabinafsha, IQ-infra qizil spektroskopiya, ¹H-YaMR, ¹³C-YaMR spektroskopiya usullarida isbotlangan;

Nepeta Olgae Regel L. yer ustki qismi ekstraktiv moddalari tarkibida degidrokversetin, lyutiolin, kvvertsetin, rutin, sinarozid, salidrozd va *Ranunculus Repens* L. yer ustki qismi ekstraktiv moddalari tarkibida mavjud flavonoidlardan: rutin, kvvertsetin, apigenin mavjudligi YuSSX tahlil usulida aniqlangan;

GX usuli yordamida *Nepeta Olgae Regel* L. o'simligi tarkibidagi to'yinmagan yog' kislotalari (51,47%) to'yingan yog' kislotalaridan (48,53%) ustun ekanligi va to'yinmagan yog' kislotalaridan eykozan 20:1, sis-11,14-eykozadien 20:2 va 8,11,14-eykozadien 20:3 + araxidon kislotalari mos ravishda 1,38%, 1,71% va 1,45% ekanligi hamda qutbli lipidlari tarkibida lignoserin 24:0 kislotasi minor komponent ekanligi isbotlangan;

Nepeta Olgae Regel L. o'simligi efir moylari tarkibida 76 ta birikmalar, *Ranunculus Repens* L. o'simligi efir moyi tarkibida esa 62 ta birikmalar GX-MS usulida olingan natijalar asosida identifikatsiya qilingan hamda ularining bakteriya va zamburug'larga qarshi faolliklari *in vitro* sharoitida aniqlangan;

Nepeta Olgae Regel L. o‘simligidan turli muhitlarda ajratib olingan ekstraktlarining biologik faolligi *in vitro* va *in vivo* tajribalarida yurakda peroksidlanish jarayonini tormozlashi aniqlangan;

Ranunculus Repens L. o‘simligini turli muhitlarda ajratib olingan ekstraktlarining *in vitro* sharoitida antioksidant faollik namoyon qilishi spektrofotometrik usulda aniqlangan;

Olingan tabiiy oziq-ovqaty qo‘shilmalari tovar sifatida sinflanib, ularga tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi bo‘yicha yangi xalqaro tovar kod raqamlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Raphanus Sativus L. o‘simligi ildiz mevasidan lizotsim fermentini olish texnologiyasining elektron dasturi ishlab chiqilgan;

“ASTOP” va “ASZUFO” shifobaxsh biologik faol oziq-ovqat qo‘shilmalari uchun reseptlar, texnik yo‘riqnomalar (TY 203948386-02:2024, TY 203948386-03:2024) ishlab chiqilgan;

Nepeta Olgae Regel L. o‘simligi tarkibidagi lipidlar tarkibi 5,54% neytral lipidlar va 6,15 % qutbli lipidlardan iborat ekanligi aniqlangan. Neytral lipidlar tarkibida triasetilgliseridlar (asosiy tarkibi karotinoidlar), qutbli lipidlarda esa glikolipidlar asosiy komponent ekanligi aniqlangan;

Nepeta Olgae Regel L. va *Ranunculus Repens* L. o‘simliklarining makro-va mikroelement tarkibi neytron aktivatsion usulda o‘simliklar biogen elementlar manbai ekanligi aniqlangan;

“BILLUR ARKON” XK da “ASTOP” va “ASZUFO” biologik oziq ovqat qo‘shilmalarini seriyali ishlab chiqarish texnologiyasi yaratilgan;

“ASTOP” va “ASZUFO” biologik oziq ovqat qo‘shilmalarining dorivor tarkibiy qismlarining biologik faolligi asosida Tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi bo‘yicha yangi xalqaro tovar kodlari ishlab chiqilgan;

Nepeta Olgae Regel L. o‘simligidan ajratib olingan efir moylarining farmakologik xossalari O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasiga qarashli O‘simlik moddalari kimyosi instituti farmakologiya laboratoriyasida tekshirilib, bakteriya va zamburug‘larga qarshi antioksidant faollikni namoyon qilishi aniqlangan;

tadqiqot ob’ektlari o‘simliklaridan ajratib olingan pektin moddalari va pektin kislotasini bentonit bilan birgalikdagi kompozitsiyasi yuqori flokulyantlik xossasini namoyon qilishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ajratib olingan moddalarni tarkibi va tuzilishi UB, IQ, ¹H-YaMR, ¹³C-YaMR spektroskopiya, MS-mass-spektrometr, YuSSX-yuqorisamarador suyuqlik xromatografiya, RTT, YuQX-yupqa qatlamli va QX-qog‘oz xromatografiyasi, kristallanish va qayta kristallash, sifat reaksiyalari va guvoh moddalar bilan taqqoslash kabi zamonaviy fizik-tadqiqot usullari yordamida aniqlanganligi, ularning biologik faolligi yetakchi ilmiy-tadqiqot institutlari tomonidan tasdiqlanganligi, dorivor o‘simliklarni tadqiq qilish va biologik faol oziq-ovqat qo‘shilmalarini tayyorlashda qo‘llanadigan usullardan foydalanilganligi, biologik faol qo‘shilmalarning toksikologik-gigiyenik xavfsizlik

mezonlarini o'rganish bo'yicha sohada kompetentli hisoblangan laboratoriyalarda tadqiqotlar o'tkazilganligi, olingan ilmiy natijalarning yetakchi ilmiy nashrlarda chop etilganligi, amaliy natijalarni vakolatli davlat tizimlari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. O'zbekiston florasidagi *Raphanus Sativus* L., *Helianthus Tuberosus* L., *Nepeta Olgae Regel* L. va *Ranunculus Repens* L. o'simliklarining tarkibi biologik faol moddalarga boyligi aniqlanganligi, ularning tuzilishi, antioksidant xossasi, biologik faolligi, ayrim fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari aniqlanganligi, *Raphanus Sativus* L. o'simligidan lizotsim moddasi ajratib olinganligi, *Nepeta Olgae Regel* L. o'simlik namunalari tarkibidan 7 ta sof birikma, ya'ni 7 ta flavonoidlar ajratib olinganligi hamda ularning kimyoviy xossalari tadqiq etilib, tuzilishlari tadqiqotning zamonaviy fizik-kimyoviy uslublari yordamida tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati *Raphanus Sativus* L., *Helianthus Tuberosus* L., *Nepeta Olgae Regel* L. va *Ranunculus Repens* L. o'simliklarining biologik faol moddalari namunalari biologik faolliklari ilk bor o'rganilishi natijasida antioksidant xususiyatiga ega bo'lgan "ASZUFO" va "ASTOP" biologik faol oziq-ovqat qo'shimchalari yaratilganligi, ularni ishlab chiqarish uchun retseptlar, texnik yo'riqnomalar tuzilganligi hamda ularga tashqi iqtisodiy faoliyatdagi tovarlar nomenklaturasi bo'yicha yangi tovar kodlari ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. *Nepeta Olgae Regel* L., *Raphanus Sativus* L., va *Helianthus Tuberosus* L., o'simliklarining kimyoviy komponentlari va biologik faolligini o'rganish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Nepeta Olgae Regel L. o'simligi ekstrakti O'zDSt 3466:2020 asosida olingan yangi tabiiy "ASZUFO" va *Raphanus Sativus* L., va *Helianthus Tuberosus* L. o'simliklari ekstraktlari asosida Gost 28499-2014 asosida "ASTOP" yangi oziq-ovqat qo'shimmalarini "BILLUR ARKON" XK da ishlab chiqarish uchun O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan ruxsatnoma berilgan (№ 020300, 2024 y.). Natijada, mazkur oziq-ovqat qo'shimmalarini ishlab chiqarish imkonini bergan.

Nepeta Olgae Regel L. o'simligi ekstrakti asosida "ASZUFO" va *Raphanus Sativus* L., va *Helianthus Tuberosus* L. o'simliklari ekstraktlari asosida "ASTOP" oziq-ovqat qo'shimmalari uchun yangi resept, texnologik yo'riqnomalar (TY 203948386-02:2024, TY 203948386-03:2024) O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining Sanitariya-epidemiologiya osoyishtalik va jamoat salomatligi nazorati tomonidan tasdiqlangan (O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologiya osoyishtalik va jamoat salomatligi nazoratining 2024-yil 28-dekabrda 26-11 b-118 son xati). Natijada, nafas yo'llari kasalliklari, siydik tosh kasalliklari, bel umurtqa churra, diabet kabi kasalliklarini oldini olishga yordamchi yangi oziq-ovqat qo'shimmalarini talab darajasida identifikatsiyalash va ishlab chiqarish imkonini bergan.

Nepeta Olgae Regel L., *Raphanus Sativus* L., va *Helianthus Tuberosus* L., o'simliklarining kimyoviy tarkibi asosida tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar

nomenklaturasi bo'yicha sinflanib, ularga dorivor o'simliklar uchun 1212 99 950 1 xalqaro tovar kod raqami ishlab chiqilgan va bojxona amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining 2025 yil 8-fevraldagi № 17/05-25-0198- sonli ma'lumotnomasi). Natijada, antioksidant, antibakterial xossali oziq-ovqat qo'shilmalarini sinflash, eksport va import qilishda ulardan undiriladigan boj to'lovlarini nazorat qilish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari jami 41 ta shundan, 19 ta xalqaro va 22 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 65 ta ilmiy ish, jumladan 1 ta guvohnoma, 1 ta darslik, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiyasi komissiyasining fan doktori (DSc) dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 22 ta maqola, jumladan, 10 ta xalqaro va 12 ta respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 5 ta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 198 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida olib borilgan tadqiqotlarning dolzarbligi, zaruriyati ifoda etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'yekti hamda predmetlari ko'rib chiqilgan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar, dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“O'zbekiston florasidagi ayrim shifobaxsh o'simliklarning kimyoviy tarkibi. Tovarlar kimyosi fanining rivojlanishi” (adabiyotlar tahlili)** deb nomlangan birinchi bobida *Raphanus Sativus* L., *Helianthus Tuberosus* L., *Nepeta Olgae Regel* L. va *Ranunculus Repens* L. o'simliklarining kimyoviy tarkibi va biologik faolliklari, tovarlar kimyosi fanining rivojlanish tarixi va ahamiyati, oziq-ovqat qo'shilmalarini TIF TN bo'yicha sinflanishi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“*Raphanus Sativus* L., *Helianthus Tuberosus* L., *Nepeta Olgae Regel* L. va *Ranunculus Repens* L. o'simliklarining biologik faol moddalarini ajratib olish va ularning fizik-kimyoviy tadqiq qilish usullari (tajriba qism)”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot ob'ekti va usullari, o'simliklarining sifat ko'rsatkichlarini aniqlash, o'simliklar tarkibidagi ekstraktiv moddalar miqdorini aniqlash, *Raphanus Sativus* L. o'simligi ildiz mevasidan lizotsim oqsilini ajratib olish, *Helianthus Tuberosus* L., *Nepeta Olgae Regel* L. va *Ranunculus Repens* L. o'simliklarining biologik faol moddalarining miqdorini turli usullar yordamida aniqlash, o'simlik efir moylari va ekstraktlari asosida tayyorlangan namunalarning antioksidantlik, biologik faolliklarini *in vitro* va *in vivo* sharoitida aniqlash usullari bayon qilingan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “*Raphanus Sativus L. va Helianthus Tuberosus L. o‘simliklari biologik faol moddalarini ajratish, tahlil qilish (natijalar muhokamasi)*” deb nomlangan bo‘lib, unda ikkala o‘simlikning turli erituvchilarda olingan ekstraktiv moddalari miqdori, aminokislotalari, lipidlari va ularning yog‘ kislotalari, o‘simliklar ildiz mevalari tarkibidagi mikro va makroelementlar, suvda eruvchan vitaminlari miqdori, polisaxaridlari tarkibi, *Raphanus Sativus L. va Helianthus Tuberosus L.*lar lizotsim, inulin va pektin moddalarining *in vitro* sharoitida biologik faolliklarini, ayrim flavonoidlar miqdorini turli usullar yordamida aniqlashga qaratilgan bir qancha tajriba natijalari muhokama qilingan.

Raphanus Sativus L. (oq, sariq, qora, qizil va yashil turp) osimligining 5 ta navi ildizmevasida organik moddalarning to‘planish dinamikasi turli erituvchilar (etanol, geksan, xloroform va etilasetat) yordamida o‘rganildi. Organik moddalar asosan yashil va qora turp tarkibida ustunlik qildi. Shu asosda, standart lizotsim ishtirokida YuQX usuli orqali ikki navdagi lizotsimning sifat tarkibi aniqlandi va lizotsim tadqiq etilgan ildizmeva oqsillari tarkibiga kirishi tasdiqlandi (1-pacm).



1-rasm. *Raphanus Sativus L. va Raphanus Sativus var.niger L.* oqsillarining yupqa qatlamli xromatogrammasi. (butanol: sirka kislotasi: piridin: suv (15: 3: 10: 12)).
1 - *Raphanus Sativus L.* (yashil turpi) oqsili.
2-*Raphanus Sativus var.niger L.* (qora turp) oqsili;
3-Standart lizotsim (5 mg/ml);
4-Standart lizotsim (10 mg/ml).

1 2 3 4

lizotsim oqsilini ajratib olish texnologiyasi ishlab chiqilib, uning elektron dasturi yaratildi. Xromatogrammada standart lizotsim (marker) R_f ning qiymati yashil va qora turp oqsilning R_f qiymatiga mos keldi.

Ajrataib olingan lizotsim oqsilning peptidlari miqdor jihatdan tahlili YuSSX ni teskari faza nano -LC-MS/MS, CHIP-Q-TOF Agilent Technologies 6520B seriyali mass-spektrometrga ulangan Agilent 1200 nano-oqimli LC tizimi yordamida amalga oshirildi.

Oqsil tarkibini miqdoriy aniqlash spektrofotometrda Kalkar usulidan foydalangan holda, aromatik aminokislotalarning (triptofan va tirozin) ul‘trabinafsha sohasini maksimal 280 nm yutish qobiliyatiga asoslangan. Bu usulda nuklein kislotalar va nukleotidlarning mavjudligi bu usul bilan oqsilni aniqlashga halaqit beradi. Shuning uchun optik zichlikni nafaqat 280 nm, balki 260 nm da o‘lchash orqali ularning ta‘sirini istisno qilish orqali haqiqiy oqsil miqdori, ya‘ni, 1 kg quruq *Raphanus Sativus L. va Raphanus Sativus var.niger L.* tarkibida mos ravishda 8,20 g va 10,50 g oqsil mavjudligi aniqlandi.

Raphanus Sativus L. va Raphanus Sativus var.niger L. oqsillari aminokislota tarkibini miqdoriy aniqlash Stiven A, Koen Deviel usulida amalga oshirildi. FTK aminokislotalarining identifikatsiyasi Agilent Technologies 1200 xromatografida amalga oshirildi. *Raphanus Sativus L.* ildiz mevasi tarkibida 16 ta, *Raphanus Sativus var.niger L.* ildiz mevasi tarkibida esa 17 aminokislota mavjudligi aniqlandi. Ikkala o‘simlik ildiz mevasi oqsillari aminokislotalarining yig‘indisi mos ravishda 393,55 mg/g va 358,58 mg/g bo‘lib, almashinmaydigan

aminokislotalari umumiy aminokislotalar massalariga nisbatan 54,16 % va 47,11 % ni tashkil qildi.

Tadqiqotlar davomida *Raphanus Sativus* L. o'simligining uchta turi ildiz mevasining YuQX usulida umumiy lipidlarining tarkibi aniqlandi.

Tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'ldiki, ushbu o'simliklar umumiy lipidlarining tarkibiga uglevodorodlar, sterollar, triterpenollar, poliprenollar, alifatik va siklik spirtlar kirishi aniqlandi.

Umumiy lipidlardagi GL glikolipidlarining tarkibida mono - va digalaktozidigitseridlar, sterol glikozidlar va ularning efirlari, serebrozidlar mavjud bo'lib, ular orasida sterol glikozidlar mo'roq miqdorda ekanligi aniqlandi.

Fosfolipidlarning tarkibini aniqlash uchun umumiy lipidlar tarkibidagi FL xloroform - metanol - ammiak 13:37:1 erituvchilar sistemasidagi silikagelda sinovdan o'tkazildi. Ularning namoyon bo'lishi uchun Vaskovskiy va Dragendorff reaktividan foydalanildi. FL tarkibiga fosfatidiletanolaminlar, fosfatidilxolinlar fosfatidilinozitlar kirgan bo'lib, ulardan fosfatidilxolinlar sinflari ustunlik qildi.

So'ng, ushbu uchta turning umumiy lipidlarining yog' kislotalarini ajratish uchun, ekstrakt tarkibidan sovunlanmaydigan moddalar ajratib olindi va sovunning parchalash hamda yog kislotasining hosil qilish tajribalari o'tkazildi. Hosil qilingan yog' kislotalarining tarkibi gaz xromatografiya usulida tahlil qilindi (1-jadval).

1-jadval.

Umumiy lipidlarning yog' kislotalari tarkibi (massa bo'yicha %)

Yog' kislotalari		Qora turp	Oq turp	Yashil turp
Kaprin	10:0	0,02	0,28	0,08
Laurin	12:0	0,35	0,59	0,37
Miristin	14:0	0,36	1,11	1,11
Pentadekan	15:0	0,22	0,59	0,48
Palmitin	16:0	28,12	35,42	66,58
Palmitolein	16:1	2,59	2,44	1,24
Margarin	17:0	0,28	-	0,52
Stearin	18:0	2,93	2,79	4,46
Olein - 18:1 ω 9 + Linolen 18:3 ω 3		46,73	6,37	5,01
Linol	18:2 ω 6	16,27	46,86	11,09
Araxin	20:0	0,46	1,79	1,75
Eykozen	20:1	0,42	0,54	3,55
Begen	22:0	0,43	1,22	1,92
Erusik	22:1	-	-	0,32
Lignotserin	24:0	0,73	-	1,52
Nervon	24:1	-	-	-
Geksakozan	26:0	0,09	-	-

Tajriba natijalaridan ma'lum bo'ldiki, *Raphanus Sativus var.niger* L. (qora turp) o'simligi ildiz mevasida to'yinmagan yog' kislotalari uctunlik qilishi aniqlandi.

Raphanus Sativus L. va *Helianthus Tuberosus* L. o'simliklarining tarkibidagi makro - va mikroelementlar miqdori neytron-aktivatsion usulida aniqlandi (2-jadval).

Raphanus Sativus L. va *Helianthus Tuberosus* L. ildiz mevalarining kimyoviy elementlar tarkibi, (mkg/g)

№	Element	№1	№2	№3	№	Element	№1	№2	№3
1	Na	260	462	120	19	Hg	<0.001	0,036	-
2	K	22500	27900	22000	20	Tb	0,02	0,0096	-
3	Mn	33	28,3	3,98	21	Th	0,42	0,212	0,0098
4	Sm	0,11	0,078	0,024	22	Cr	21	2,05	0,48
5	Re	0,0056	-	-	23	Hf	0,14	0,07	-
6	Mo	3,7	0,966	0,626	24	Ba	68	29,8	-
7	Lu	0,0067	0,005	-	25	Sr	278	59,8	16,9
8	U	0,16	0,19	-	26	Cs	0,29	0,09	-
9	Yb	0,053	0,047	-	27	Ni	11	0,5	0,04
10	Au	0,0014	0,0078	0,0046	28	Sc	0,33	0,184	0,0136
11	Nd	0,77	-	-	29	Rb	21	10,1	7,54
12	As	0,91	0,215	-	30	Zn	25	50,5	17,6
13	W	<0.1	0,553	-	31	Co	0,75	0,49	0,087
14	Br	6,4	0,4	0,247	32	Ta	0,012	0,01	-
15	Ca	11600	5840	1190	33	Fe	450	574,0	61,5
16	La	0,91	0,685	0,390	34	Eu	0,041	0,023	0,003
17	Ce	1,6	1,16	-	35	Sb	0,13	0,118	0,034
18	Se	<0.1	-	-			35283,76	40262,50	26770,89

Izoh: №1 – *Raphanus Sativus* L. ildiz mevasi, № 2 - *Helianthus Tuberosus* L. ildiz po'stlog'i, №3- *Helianthus Tuberosus* L. ildiz mevasi.

Keyingi tadqiqotlarimizda *Helianthus Tuberosus* L. ildiz mevasidan polisaxarid moddalarini ajratib olindi va tarkibi IQ-spektroskopiya usulida tahlil qilindi (3-jadval).

Helianthus Tuberosus L. ildizmevalari polisaxaridlarining sifat va miqdoriy ko'rsatkichlari

Polisaxaridlar	Unum, %	Monosaxarid tarkibi
Inulin	12,8	Fruktoza, Glyukoza (izi)
Pektin moddalarini	2,4	Galaktoza, glyukoza, arabinoza, uron kislotasi
GMS	3,8	Galaktoza, glyukoza, ksiloza, uron kislotalari

IQ-spektrida inulinda glyukofruktanlarga xos yutilish chiziqlari mavjud. Hidroksil guruhlariga mos yutilishlar $3600-3400\text{ sm}^{-1}$ da, 818 sm^{-1} yutilish glyukoza piranoza xalqasiga, 874 sm^{-1} yutilish chizig'i fruktoza qoldiqlari orasidagi β -glikozid bog'i mavjudligidan darak beradi, 936 sm^{-1} yutilish chizig'i esa furanoza shaklidagi fruktozani aks ettiradi. Tahlil natijalaridan ma'lum bo'ldiki, inulin yuqori va quyi molekulyar glyukofruktanlar aralashmasidan iboratdir. U oson gidrolizlanib, $[\alpha]_{\text{D}}^{20} -28^{\circ}$ (C.0,5, suv) manfiy burilish burchagini tashkil qildi.

Ildiz mevedan ajratib olingan pektin moddalarini amorf kukun holda bo'lib, suvda yaxshi eruvchan ekanligi aniqlandi.

Monosaxarid tarkibini tahlil qilinganda u galaktoza, glyukoza, arabinoza, uron kislotalaridan va optik burilish ko'rsatkichidan $[\alpha]_{\text{D}}^{20} -75^{\circ}$ (C.0,5, suv) iboratligi aniqlandi. Pektin moddalarining IQ-spektri o'rganilganda, u

karboksipolisaxaridlar uchun xarakterli yutilish chiziqlarini namoyon qildi, ya'ni 819 sm^{-1} sohadagi yutilish bu, al'fa konfiguratsiyali glikozid bog'lari D-galakturon kislotalari qoldig'i hisobiga, 910 sm^{-1} yutilish esa 1-4 tipdagi bog'lanishlarni ko'rsatadi. 1240 va 1742 sm^{-1} yutilish chiziqlari karboksil guruhi metil efirining tebranish yutilish chiziqlaridir. 1644 sm^{-1} (ionlangan karboksil guruhining valent tebranishlari yutilish chiziqlari) va $960-1018$, 1098 va 1125 sm^{-1} da piranoza xalqasi gidroksil guruhlarining oltita o'ziga xos tebranish chiziqlaridir.

Helianthus Tuberosus L. ildiz mevasidan ajratib olingan pektin moddalarini molekulyar xossalari viskozimetrik usulda aniqlandi (4-jadval).

4-jadval

Helianthus Tuberosus L. ildiz mevalaridan ajratib olingan pektin moddalarining ba'zi-bir fizik-kimyoviy xossalari (Gidromodul 1:10 va 1:8)

Ekstrogent	Unum,%	pH	λ , %	$[\eta]$, dl/g	M_n	K_x	\overline{P}_n
$\text{H}_2\text{C}_2\text{O}_4:(\text{NH}_4)_2\text{C}_2\text{O}_4$ (1:1)	2,4	3,8	69,5	0,86	21000	0,32	119
HCl	15,14	2,4	61,5	1,34	14000	0,26	79
$\text{H}_2\text{C}_2\text{O}_4$	12,20	2,6	62,1	1,81	16000	0,22	90
$\text{HNO}_3:\text{CH}_3\text{COOH}$	15,3	2,7	57,4	0,91	19000	0,31	107

Natijalar shuni ko'rsatdiki, pektin makromolekulalari suvli erituvchida polielektrolitli bo'kish xossasini namoyon qildi. Bu pektin makromolekulasidagi karboksil guruhlarini va suvli eritmada ionlashgan holda bo'lishini bildiradi.

Xaggins doimiysining qiymati ($K_x=0,22-0,32$) bo'lishi termodinamik jihatidan "suv" "yaxshi" erituvchi hisoblanib, pektin makromolekulalari tarkibidagi $-\text{COO}^-$, $-\text{OH}$ va erituvchi (H_2O) hisobiga ichki molekulyar ta'sirlar va makromolekulararo ta'sirlar mavjudligini bildiradi.

Vitaminlarga boy BFQ olish maqsadida mahalliy sharoitda yetishtirilgan *Raphanus Sativus L.*, *Raphanus Sativus var.niger L.* va *Helianthus Tuberosus L.* ildiz mevalarining suvda eruvchan vitaminlarining sifat va miqdoriy tarkibi YuSSX usulida o'rganildi (5-jadval).

5-jadval

Raphanus Sativus var. Lobo L. va *Raphanus Sativus var.niger L.* o'simliklari ildiz mevalari tarkibidagi suvda eruvchan vitaminlari miqdori

№	Vitaminlar		<i>Raphanus Sativus L.</i>	<i>Raphanus Sativus var. niger L.</i>	<i>Helianthus Tuberosus L.</i>
			Konsentratsiya mg/g		
1	B ₁	Tiamin	0.094823	0,032248	0,036102
2	B ₂	Riboflavin	0.583754	0,031456	0,048001
3	B ₆	Piridoksin	5.511789	2,211768	0,000102
4	B ₉	Foliy kislota	3.830601	3.246877	-
5	PP B ₃	Nikotin kislota	0.089702	0,078816	1,584103
6	C	Askorbin kislota	3.336463	29,34156	4,814130
Jami			13,4471	34,9427	6,4824

Raphanus Sativus L. ildiz mevasida B₆ vitamini (5,5118 mg), *Raphanus Sativus var. niger L.* va *Helianthus Tuberosus L.* ildiz mevalarida esa C vitamini miqdori mos ravishda (29,3416 va 4,8141 mg) yuqori miqdorda bo'lib, uchchala o'simlik ildiz mevalarida vitaminlarning umumiy miqdoriy nisbati 2: 5 : 1 ni tashkil qildi.

Raphanus Sativus L. va *Helianthus Tuberosus* L. o‘simliklari ildiz mevalari tarkibidagi fenol birikmalari miqdori (YuSSX)si usulida o‘rganildi va olingan natijalar qayta ishlanib 6-jadvalda keltirildi.

6-jadval

Raphanus Sativus L. va *Helianthus Tuberosus* L. ildiz mevasi ekstraktlari tarkibidagi polifenollarning miqdori va ushlanish vaqtlari


Fenol birikma nomi	Ushlanish vaqti, soniya	Konsentratsiya, mg/l	100 g namunadagi miqdor, mg
<i>Raphanus Sativus</i> L.			
Rutin	19,305	0,288	0,360
Salitsil kislota	22,194	0,319	0,399
Kversetin	23,900	0,106	0,133
Apigenin	26,909	0,175	0,219
<i>Helianthus Tuberosus</i> L.			
Rutin	18,445	0,250	0,313
Salitsil kislota	21,013	0,053	0,066
Kversetin	23,791	6,576	8,220
Apigenin	26,725	2,709	3,386

Bunda ikkala o‘simlik ildiz mevasi tarkibidagi fenol birikmalaridan rutin, salitsil kislotasi, kversetin va apigenin mavjudligi ilk bor aniqlandi. Ikkala o‘simlik ildiz mevasida fenol birikmalarning miqdori tekshirilganda *Helianthus Tuberosus* L. ildiz mevasida kversetin va apigenin ko‘p miqdorda ekanligi aniqlandi.

Adabiyotlarda rutin, salitsil kislota, kversetin va apigenin fenolli va flavonoid birikmalar bo‘lib, antioksidant faolligi haqida turli xil ilmiy dalillar mavjud.

Antioksidantlar organizmda oksidlovchi stress tufayli kelib chiqadigan kasalliklarning rivojlanishidan eng yaxshi himoyani ta‘minlashi aniqlangan.

Adabiyot ma‘lumotlaridan *Raphanus Sativus* L. va *Helianthus Tuberosus* L. ildiz mevalari ekstraktlarining biologik faolliklari o‘rganilmaganligi ma‘lum bo‘ldi. Shunga ko‘ra, tadqiqotlarimiz davomida *Raphanus Sativus* L. va *Helianthus Tuberosus* L. ildiz mevalaridan ajratib olingan lizotsim, inulin va pektin moddalari kompozitsiyasining biologik faolliklari O‘zMU huzuridagi Biofizika va biokimyo institutining “Molekulyar biofizika” laboratoriya xodimlari bilan birgalikda *in vitro* va *in vivo* sharoitlarida o‘rganildi (2,3-rasmlar).




2-rasm. Lizotsim (A) va inulinni (B) jigar mitoxondriyasining Fe^{2+} +askorbat bilan chaqirilgan LPO jarayoniga ta‘siri (nazoratga nisbatan ishonchlilik * $R < 0,05$;

** $R < 0,01$; n=5).

Lizotsimning 20, 30 va 40 mkg/ml konsentratsiyalari jigar mitoxondriyasining Fe²⁺/askorbat bilan indutsirlangan lipidlarni peroksidlanishi (LPO) ni nazorat ko'rsatkichlariga nisbatan mos ravishda 44,6±5,6%; 59,5±3,5% va 65,0±4,7% ga kamaytirishi aniqlandi (2-rasm, A). Bu lizotsimning 20, 30 va 40 mkM konsentratsiyalari jigar mitoxondriyasida antioksidant xossaga ega ekanligidan dalolat beradi.

Inulinning 20 mkM konsentratsiyasi mitoxondriya membranasida Fe²⁺/askorbat ta'sirida hosil bo'lgan LPO ni nazoratga nisbatan 61,4±4,6% ga kamaytirishi aniqlandi. Inulinning 30 va 40 mkM konsentratsiyalari mitoxondriyada LPO tezligini nazoratga nisbatan mos ravishda 86,2±3,8% va 89,5±3,5% kamaytirganligi aniqlandi (2-rasm, B).

Inkubatsiya muhitida pektinning miqdorini 30 va 40 mkg/ml ga oshirganimizda mitoxondriya membranasining Fe²⁺/askorbat bilan chaqirilgan bo'kishiga nazoratga samarali ta'sir etib (84,1±5,2% va 89,9±5,8%), LPO intensivligini keskin kamaytirganligi aniqlandi (3-rasm).



3-rasm. Pektin polisaxaridning jigar mitoxondriyasining Fe²⁺+askorbat bilan chaqirilgan LPO jarayoniga ta'siri (nazoratga nisbatan ishonchlilik *R<0,05; **R<0,01; n=5).

Pektinning jigar mitoxondriyasida Fe²⁺/askorbat induktori ta'sirida antioksidant xossalarini namoyon etishi ilk bor qayd etilganligi bilan alohida ahamiyatga ega hisoblanadi.

Inulin va pektinning gipoglikemik faolligini aniqlash uchun navbatdagi tajribalarni *in vivo* sharoitlarda amalga oshirildi. Kalamushlarda eksperimental diabet chaqirish uchun alloksan monogidratdan foydalanildi.

Pektinning jigar mitoxondriyasida Fe²⁺/askorbat induktori ta'sirida antioksidant xossalarini namoyon etishi ilk bor qayd etilganligi bilan alohida ahamiyatga ega hisoblanadi.

Alloksan diabet sharoitida kalamushlar qonidagi glyukoza va jigaridagi glikogen miqdoriga inulin va pektinning ta'siri o'rganildi. Alloksan diabet sharoitida kalamushlar qonidagi glyukoza miqdori va jigar to'qimasidagi glikogen miqdoriga inulin va pektinning ta'siri quyidagi jadvalda keltirilgan (7-jadval).

Alloksan dibetda kalamush qonidagi glyukoza va jigar to‘qimasidagi glikogen miqdoriga inulin va pektinning ta’siri ($M \pm m$, $n=5$)

Hayvon guruhlari	Glyukoza miqdori, mmol/l	Glikogen miqdori tana vazniga nisbatan mg/100 g (% hisobida)
Nazorat	4,8	100
Alloksan diabet	18,1	52,3
Alloksan diabet+inulin 600 mg/kg	7,5	86,2
Alloksan diabet+pektin 600 mg/kg	10,6	67,4

Olingan natijalarga ko‘ra, alloksan diabet sharoitida qondagi glyukoza va jigarda glikogen miqdori nazoratga nisbatan kamayishi aniqlandi. Alloksan diabetda kalamushlarning qondagi glyukoza miqdori 11 mmol/l dan oshgandan so‘ng ularga inulin 600 mg/kg va pektin polisaxaridi 600 mg/kg dozada 8 kun davomida peroral yuborildi. Qondagi glyukoza har 3 kunda tekshirib borildi va uning miqdorini 11 mmol/l dan kamaygandan keyin kalamushlar qonidagi glyukoza va jigardagi glikogen miqdori aniqlandi. Alloksan diabet modeli chaqirilgan kalamushlarni inulin va pektin bilan farmakoterapiya qilinganda ularning qonidagi glyukoza miqdorini kamayishi va jigaridagi glikogen miqdorini esa diabet guruhiga nisbatan ortishi samarali bo‘lganligi aniqlandi. Bunda inulinning gipoglikemik faolligi va glikogen sinteziga ta’siri pektinga nisbatan samarali ekanligi qayd qilindi.

Dissertatsiyaning IV bobi “*Nepeta Olgae Regel L. va Ranunculus Repens L.* o‘simliklarining biologik faol moddalarini ajratib olish va tahlil qilish (natijalar muhokamasi)”da ushbu o‘simliklarning sifat ko‘rsatkichlari, ekstraktiv moddalar, makro- va mikroelementlari, efir moylari, aminokislotalari, lipid va yog‘ kislotalari, shuningdek ayrim flavonoidlar miqdori turli usullar yordamida aniqlangan. Shuningdek, uglevod tarkibi va polisaxaridlar ajratilib, tahlil qilingan. Olingan ekstraktlar asosida tayyorlangan namunalar *in vitro* sharoitda antioksidant va biologik faollik jihatidan baholangan, polisaxaridlarning flokulyantlik xossalari o‘rganilgan. Bundan tashqari, *Nepeta Olgae Regel L.* o‘simligidan sof holda ajratib olingan moddalar kimyoviy jihatdan tahlili bayon qilingan.

Nepeta Olgae Regel L. va Ranunculus Repens L. o‘simliklarining sifat ko‘rsatkichlari tajribalar asosida DF talablariga muvofiq kelishi aniqlandi.

Tadqiqotlar davomida *Nepeta olgae Regel L.* o‘simligidan 70% li etil spirt bilan ekstraksiya qilinganda maksimal ekstraktiv moddalarni chiqishi kuzatildi va *Ranunculus Repens L.* o‘simliklaridan ekstraktiv moddalarni ajratib olishda esa 40% li etil spirt eng maqbul ekstrogen ekanligi aniqlandi.

Nepeta Olgae Regel L. va Ranunculus Repens L. o‘simliklari tarkibidagi elementlar miqdori neytron-aktivatsion tahlil usuli yordamida o‘rganilganda 35 ta, *Ranunculus Repens L.* o‘simligi namunalarida 34 ta makro- va mikroelementlar aniqlandi. Kosonsoy tumani tog‘ oldi hududlaridan terilgan *Nepeta Olae Regel L.* o‘simligining gullash davridagi va gullashdan keyingi davrda yer usti va yer osti qismlarida makroelementlar 5 ta, mikroelementlar 28 ta, zaharli elementlar 2 ta (As, Sb) aniqlandi.

Tarkibidagi hayotiy muhim elementlarning miqdoriy tarkibi bo'yicha quyidagi qatorni tashkil qildi: K>Ca>Mg> Fe >Na >Cl>>Zn>Mn>Cu>Mo>I >Co.

Tarkibidagi shartli muhim elementlarning miqdoriy tarkibi bo'yicha quyidagi qatorni tashkil qildi: Sr >Cr>Ni>Br.

Mineral moddalarning to'planishini o'rganish natijasida eng ko'p miqdorda kaliy, kalsiy, magniy, temir, natriy, xlor, rux, stronsiy, marganets, xrom, mis, nikel, brom, molibden, iod va kobal't o'simlikning ham yer ustki qismida ham ildiz qismida to'planishi aniqlandi.

Nepeta Olgae Regel L. o'simligining yer usti qismi gullash fazasida va gullashdan keying davrdagi aniqlangan kaliy eng yuqori miqdorda 24000-27800 mkg/g, ildiz qismida 15500-18600 mkg/g, ya'ni yuqori miqdorda aniqlandi. Kaliy elementi hayotiy zarur element sifatida tirik organizmda nerv impulslarining o'tishida ajralmas komponenti bo'lib, mushaklarning qisqarishini nazorat qiladi, shu jumladan, yurak va qon bosimini normal holatda saqlaydi.

O'simlik gullash fazasida yer ustki va ildizlarida kaltsiy miqdori yuqori darajada (21100 va 3700 mkg/g) aniqlangan. Magniyning miqdori 4200 – 2000 mkg/g ni tashkil etdi; organizmda u 300 dan ortiq fermentativ reaksiyalarda kofaktor sifatida ishtirok etadi. Magniy oqsil biosintezi, yog' kislotalari oksidlanishi, energiya ishlab chiqarish va glyukoza almashinuvida ishtirok etadi.

Nepeta Olgae Regel L. o'simligida zaharli element mishyak va surmaning miqdori yer ustki qismining gullash fazasida o'rtacha 0,60 mkg/g= 0,0006 mg/g va 0,11mkg/g=0,00011mg/g ni tashkil etdi. Bu qiymat ruxsat etilgan maksimal konsentratsiya chegarasidan oshmaydi ($C_{REK}=0,01$ mg/g), bu o'z navbatida choydagi og'ir metallarning ruxsat etilgan miqdori bo'yicha 2002 yil SanPiN 2.3.2.1078-01 talablariga javob beradi [SanPiN 2.3. 2. 1078-01., 2002].

Ranunculus Repens L. o'simligining yer ustki qismida jami 34 ta elementlar aniqlanib, ular tarkibida og'ir metallarni konsentratsiyasining kamligi o'simlikning ekologik jihatdan toza va havfli emasligi ahamiyatlidir.

Tajriba natijalariga ko'ra o'simlik yer ustki qismida hayotiy faoliyat uchun zarur bo'lgan elementlar (makro- va mikroelementlar) mavjud bo'lib, ular quyidagi qatorda miqdorlari kamayib borgan: K(34000)>Fe(30700)>Ca(15200)>Na(1100)>Sr(250)> Cr(135)>Mn(59)>Ni(52)>Zn(40)>Co(15)>Br(7,9)>Mo(1,2)>As(<0,5).

Muhim "hayotiy" yoki "essensial" mikroelementlar organizmda yoq bo'lsa, yoki, yetarli bo'lmasa normal hayotiy faoliyat buzilgan bo'ladi. Bunday yetishmayotgan elementlarning miqdorini klinik aralashuv orqali to'ldirilib, tananing hayotiyligi tiklanadi.

O'rganilayotgan *Ranunculus Repens L.* o'simligida magniyning yuqori miqdori uning xlorofilning bir qismi ekanligi bilan izohlanadi. Magniy organizmdan xolesterinni olib tashlashga, ichak harakatini va safro sekretsiyasini oshirishga yordam beradi. Ma'lumki, ruxning yetarli miqdori T-hujayra immunitetini faollashtiradi. O'rganilayotgan dorivor o'simlik materiallari namunalari zaharli og'ir metallar (simob, mishyak, kadmiy, qo'rg'oshin) miqdori ruxsat etilgan maksimal konsentratsiya chegarasidan oshmaydi.

Nepeta Olgae Regel L. va *Ranunculus Repens L.* o'simliklarining yer ustki qismlarini uchuvchan birikmalari gidrodistilyatsiya usulida ajratib olindi, qurituvchilar yordamida quritildi va efir moyi tarkibi *GX-MS* usulda tahlil qilindi. *Nepeta Olgae Regel L.* ning gullagan davrida Chust (G'ova) hududidan terilgan o'simlikning yer ustki qismi efir moyi tarkibida 24 ta modda va Kosonsoy hududidan terilgan o'simlikning efir moyi tarkibida 58 ta modda identifikatsiya qilindi. Aniqlangan moddalar umumiy efir moyining mos ravishda 65,77% va 66,56% ini tashkil etdi. Chust (G'ova tog' oldi) hududidan terilgan o'simlik efir moyining asosiy tarkibiy qismini al'degid va ketonlar (48,17%), 1,8-sineol (4,77%), Kosonsoy tog' oldi hududidan terilgan o'simlik efir moyining asosiy tarkibi 1-asetil-1-siklogeksen (10,07%) bo'lib, og'riq qoldiruvchi, yallig'lanishga qarshi, saratonga qarshi va depressiyani to'xtatish ta'sirga ega. Kariofiillen (10,27%), kuchli antioksidant modda, limonen esa (7,61%), ko'p hashorotlar uchun feromon, nepetalakton hidiga o'xshash bo'lgan aktinidin (6,96%), ingibitorli ta'sirga ega bo'lgan 1,8-sineol (4%), iridomirmesin miqdori 1,04% ni tashkil qildi.

Ranunculus Repens L. o'simligining gulida efir moyi 1,2% ni tashkil qildi. Identifikatsiya qilingan moddalar 62 tadan iborat bo'lib, efir moyini 98,98% tashkil qiladi. Efir moyining tarkibida protoanemonin (43,24%), palmitin kislota (7,36%), furfurool (7,18%), 2-furanmetanol (2,93%), 2-metoksi-4-vinilfenol (2,90%) va izolongifolen (2,51%) miqdorlari ustunlik qildi. Bundan tashqari 2-butenamid (1,95%), etillioleat (1,93%), linolen kislota (1,73%), tetradekan kislota (1,62%), germakren B (1,28%), 5,5-dimetil-2-siklopenten-1-on (1,26%), dekan kislota (1,17%), kapril kislota (1,11%) va γ -valerolakton (1,10%) moddalari sezilarli darajada mavjudligi aniqlandi.

Protoanemonin *Ranunculaceae* oilasining barcha turlarida uchraydi. O'simlik quritilganda, protoanemonin havo bilan ta'sirlashib anemoninga dimerlanadi, u keyinchalik dikarboksil kislota (4,7-diokso-2-desendiol kislota) ga gidrolizlanadi.

Anemonin Xalq tabobatida teri kasalliklari, revmatizm, bo'g'imlarning kasalliklari uchun dori sifatida qo'llaniladi, chunki protoanemonin og'riq qoldiruvchi va antispazmolitik ta'sirga ega.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda o'sadigan *Ranunculus Repens L.* o'simligining efir moyi tarkibi boshqa hududlardagi navlardan sezilarli farqlandi. Adabiyotlarda ushbu tur kimyoviy jihatdan yetarlicha o'rganilmagan. Shu sababli uning kimyoviy tarkibini aniqlash va biologik faol moddalarini ajratib olish ilmiy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Namangan viloyatining Chust va Kosonsoy tumanlarida o'suvchi *Nepeta Olgae Regel L.* o'simligining kimyoviy tarkibi kam o'rganilgan, Shunga ko'ra, ushbu o'simlik kimyoviy komponentlarini chuqurroq o'rganishni taqazo qiladi.

Shu munosabat bilan *Nepeta Olgae Regel L.* o'simliklarining aminokislotalar tarkibi o'rganilishi natijasida 17 ta aminokislotalar aniqlandi, ular orasida eng ko'p ustunlik qilgan aminokislotalar: sistein (G'ova namunasida gullashdan oldingi davrda 115,0656 mg/g, Kosonsoy namunasida esa 118,11243 mg/g), gullash davrida mos ravishda (G'ova namunasida 80,59836 mg/g va Kosonsoy namunasi suvli ekstraktida 76,210036 mg/g) ekanligi aniqlandi. 8 ta muhim aminokislotalar

immunitetning himoya funksiyalarini saqlaydi va ularning miqdori gullashdan oldin G'ova va Kosonsoy namunalarida 15%, gullash davrida 20% ni tashkil qildi.

Ilmiy adabiyotlarda *Nepeta Olgae Regel L.* ning lipid va yog' kislotalari tarkibi haqida ma'lumotlar yo'q. Shunga ko'ra ushbu o'simlikni yer usti qismining lipid va yog' kislotalarining sifat va miqdoriy tarkibi gaz xromatografiyasi usulida o'rganildi.

Tahlil natijalariga ko'ra (Chust G'ova tog' oldi hududi) *Nepeta Olgae* o'simligi neytral lipidlari (NL) miqdori - 5,54%, (Kosonsoy tog' oldi hududi) *Nepeta Olgae* o'simligi neytral lipidlari (NL) miqdori – 5,84%, qutubli lipidlar miqdori – 6,12% va 5,77% ekanligi aniqlandi. Neytral lipidlari gidrolizlandi va hosil bo'lgan yog' kislotalari diazometan bilan metillandi. Yog' kislotalarining metil efirlari GX usulida tahlil qilindi. Natijada 18 ta birikma identifikatsiya qilindi. Ulardan 11 tasi to'yingan va 7 tasi to'yinmagan yog' kislotalariga tegishli bo'lib, eng yuqori miqdorda linolen kislota 18:3 (35,48%) to'yinmagan kislotalarga, shuningdek palmitin kislota, 16:0 (33,38%) to'yingan kislotalarga to'g'ri keladi.

Ilmiy adabiyotlardan ma'lumki, organizmda kechadigan turli kasalliklarni kelib chiqishining asosiy sabablari molekulyar jihatdan qaralganda organizmda erkin radikallarni ko'payishi hisobiga sodir bo'ladi. O'simliklardan ajratib olingan biologik faol fenol birikmalari orasida flavonoidlar muhim o'rin egallaydi. Bu birikmalarni keng doiradagi biologik ta'siri, tabiiyligi va antioksidant xossaga egaligi tufayli yangi dori vositalarini yaratishda istiqbolli birikmalar hisoblanadi.

Nepeta Olgae Regel L. va *Ranunculus Repens L.* o'simliklari tarkibidagi fenol birikmalari miqdori yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi usulida amalga oshirildi hamda natijalar qayta ishlanib 8-jadvalda keltirildi.

8-jadval.

Nepeta Olgae Regel L. va *Ranunculus Repens L.* turli ekstraktlari tarkibidagi flavonoidlari miqdori. (Konsentratsiya mg/g)

Flavonodlar	<i>Nepeta Olgae Regel L.</i>			<i>Ranunculus Repens L.</i>
	xloroform	Etilatsetat	n-Butanol	Etanol
Gall kislota	0	0	0	0,0205
Rutin	0	1,4100	1,5800	1,2399
Salisil kislota	0	0	0	0,0137
Digidrokversetin	0,5980	3,9300	0,9700	0
Lyutiolin	0	0	0,7700	0
Kversetin	0,1320	1,1300	0,9040	0,6100
Apigenin	0	0	0	0,0260
Sinarozid	0	0	0,2960	0
Salidrozd	0	0	3,2100	0
Jami	0,7300	6,4700	9,7300	1,9101

8-jadval natijalaridan ma'lumki, *Nepeta Olgae Regel L.* o'simligi flavonoidlarining aglikonlari (digidrokversetin, kversetin,) xloroformli fraktsiyaga, flavonoidlarning qutbliligi yuqori bo'lgan aglikonlari va qutbliligi kam bo'lgan glikozidlari etilatsetat fraktsiyaga o'tadi. n-butanolli fraktsiyaga, asosan, qutbliligi yuqori bo'lgan flavon glikozidlari (lyutiolin, rutin, sinarozid va salidrozd) o'tgan.

Nepeta Olgae Regel L. o‘simligi yer ustki qismini xloroformli fraksiyasida digidrokversetin, kversetin aglikonlar, ya’ni nisbatan qutbsiz bo‘lganligi uchun xloroformli fraksiyada oz miqdorda bo‘lsa ham ajralganligini ko‘rish mumkin. Shu bilan birga butanolli ekstarktda rutin va salidrozd boshqa erituvchilar fraksiyasiga nisbatan yuqori miqdorda ekanligi ma’lum bo‘ldi. Etilasetatli va butanolli fraksiyalarda digidrokversetin, kversetin, lyuiteolin rutin kabi flavonoidlar mavjud bo‘lib, etilasetatli fraksiyada senerozid va salidrozdilar aniqlanmadi.

Ranunculus Repens L. yer ustki qismining ekstrakti tarkibida gall kislotasi, rutin, salitsil kislotasi va apiginin fenol birikmalari borligi hamda o‘simlik ekstrakti tarkibida kempferol mavjud emasligi ilk bor aniqlandi.

Tadqiqotlar davomida, *Nepeta Olgae Regel L.* va *Ranunculus Repens L.* o‘simliklarining yer usnki qismidan polisaxaridlar ajratib olindi va suvda eruvchan polisaxaridlar (SEPS), pektin moddasi (PM), gemisellyuloza (GMS) hamda ularning monosaxarid tarkibi o‘rganildi. Natijalar 9-jadvalda keltirilgan.

9-jadval.

Nepeta Olgae Regel L. va *Ranunculus Repens L.* yer ustki qismi polisaxaridlarning sifat va miqdoriy ko‘rsatkichlari, %.

Polisaxaridlar	Unum, %	Monosaxarid tarkib						UAc
		Gal	Glc	Man	Xyl	Ara	Rha	
<i>Nepeta Olgae Regel L.</i>								
SEPS	1,0	21,7	23,7	7,3	4,0	31,0	12,0	-
PM	1,8	31,1	12,2	9,5	3,2	37,1	6,8	+
GMS	0,8	8,0	20,0	2,7	56,0	9,0	4,4	+
<i>Ranunculus Repens L.</i>								
SEPS	3,5	27,0	29,1	5,6	13,2	22,0	3,0	-
PM	7,5	32,0	11,0	4,5	77,0	35,4	10,0	+
GMS	5,1	21,7	23,8	77,4	5,0	30,0	12,0	+

9-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, polisaxaridlar har xil miqdorda, ammo dominant polisaxarid pektin moddasi bo‘lib, *Nepeta Olgae Regel L.* o‘simligida (1,8%) va *Ranunculus Repens L.* o‘simligida (7,5%) ekanligi aniqlandi. *Nepeta Olgae Regel L.* va *Ranunculus Repens L.* o‘simliklaridan ajratib olingan SEPSlar to‘q jigarranda bo‘lib suvda yaxshi eriydi, *Nepeta Olgae Regel L.* suvli eritmasining qovushqoqligi 1,2 (1%; H₂O), *Ranunculus Repens L.* suvli eritmasining qovushqoqligi esa 1,3 (1%; H₂O) ga tengligi aniqlandi.

Ikkala o‘simlikning polisaxarid tarkibi IQ-spektroskopiya usulida tahlil qilindi. Ikkala o‘simlik SEPSlarining IQ spektrida mos ravishda: 3297 sm⁻¹ (OH guruhlari), 1591 (HOH), 1405 (C=O), 1087-829 sm⁻¹ (α-glikozid bog‘lanish) aniqlandi.

Ikkala o‘simlikdan ajratib olingan PM lari amorf krem rangli kukun bo‘lib, qisman qovushqoq eritma hosil qiladi va sovuq suvda qisman eriydi.

Nepeta Olgae Regel L. va *Ranunculus Repens L.* o‘simliklaridan ajratib olingan PM larining IQ asosiy yutilish sohalari: mos ravishda 3191 sm⁻¹ (OH guruhlari), 2991-2863 (C-H), 1591 sm⁻¹ (C=O erkin va COO⁻ efirlangan karboksil

guruhlari), 1423 cm^{-1} (ionlashgan karboksil guruhlarining tebranishlari), 1310 cm^{-1} ($-\text{OCH}_3$), 1035-804 cm^{-1} (α -glikozid bog'i).

Nepeta Olgae Regel L. va *Ranunculus Repens L.* o'simliklaridan ajratilgan GMS- amorf qora kukun bo'lib, qisman suvda eriydi, suyultirilgan ishqor eritmalarida to'liq eridi. Ikkala o'simlik GMSlarining IQ spektrida mos ravishda yutilish sohalari aniqlandi: 3280 cm^{-1} (OH guruhlari), 2926 cm^{-1} (C-H), 1629 cm^{-1} (COO^-), 1038 cm^{-1} (piranoza xalqasi), 697 cm^{-1} (α -glikozid bog'lari) tahlil qilindi.

Nepeta Olgae Regel L. va *Ranunculus Repens L.* o'simliklaridan ajratilgan PMLarining funksional guruhlarini titrimetrik va molekulyar xossalari viskozimetrik usullarda o'rganildi. Pektin moddalarini molekulyar massalarini aniqlashda Glikman va Orlovlar taklif etgan Mark-Kun-Xauvink tenglamasi ($[\eta] = 1,1 \cdot 10^{-5} M^{1,22}$) dan foydalanildi. Natijalar qayta ishlandi va 10-jadvalda keltirilgan.

10-jadval.

Nepeta O. va *Ranunculus R.* o'simliklari yer ustki qismidan ajratib olingan pektin moddalarining ayrim fizik-kimyoviy parametrlari

Polisaxarid turi	$[\eta]$, dl/g	$M_n \cdot 10^3$, g/mol	K_o , %	K_e , %	α , %
PM-1 (<i>Nepeta O.</i>)	0,54	7,00	2,25	3,6	61,5
PM-2 (<i>Ranunculus R.</i>)	0,87	10,58	3,60	12,6	77,7

Nepeta Olgae Regel L. va *Ranunculus Repens L.* o'simligi pektin moddalarini titrometrik va viskozimetrik ma'lumotlari PM ning mos ravishda yuqori efirlangan ($\alpha=61,5$ va $77,7$ %) pektinlarga tegishli ekanligini ko'rsatdi.

Adabiyot ma'lumotlarida flavonoidlar yaxshi antioksidant sifatida ifodalangan. *Nepeta Olgae Regel L.* ning flavonoidlarga boy ekstraktlarining biologik faolligi O'zbekiston Milliy Universitetining Biokimyolaboratoriyasi xodimlari bilan hamkorlikda o'rganildi. Tadqiqotlar natijasida, *Nepeta Olgae Regel L.* ekstraktlari yurakda sodir bo'ladigan salbiy jarayon, ya'ni peroksidlanish jarayonini to'xtatishi va antioksidant faolligini namoyon qilishi aniqlandi.

Ranunculus Repens L. o'simligi ekstraktlarining antioksidant faolligi adrenalinni *in vitro* avtooksidlanish reaksiyasini ingibirlash va erkin kislrod shakllarini hosil bo'lishini oldini olish bilan baholandi.

Bizning tajribamizda adrenalinni avtooksidlanish natijasida adrenoxrom hosil bo'lishining eng optimal ko'rsatkichi 10 daqiqada kuzatildi.

Keyingi tadqiqotlarimizda *Nepeta Olgae Regel L.* o'simligi yer ustki qismini ekstraktini kolonkali xromatografiya usulida fraksiyalarga ajratish natijasida 7 ta individual birikma ajratib olindi va ularni ^1H -YaMR va ^{13}C -YaMR, HSQC va HMBC spektrlarini batafsil tahlil qilish, shuningdek, adabiyot ma'lumotlari bilan taqqoslash natijasida ajratib olingan individual moddalar (Spinasterol, luteolin 7-O-glukozid, luteolin 4'-metil efir 7-O-glukozid, rutin, daukosterol, ixocarpalacton A, β -sitosterin va γ -sitosterol) ma'lum birikmalarni aniqlash imkonini berdi. Ushbu birikmalar *Nepeta Olgae Regel L.* o'simligi yer ustki qismidan birinchi marta ajratib olindi.

IV- bobning so'nngi qismi tadqiqot ob'ektlaridan ajratib olingan pektin moddasining gilmoya bilan flokulyantlik xossasini o'rganishga bag'ishlangan

bo‘lib, tadqiqotlar “Toifa” navli uzum sharbatlari ustida olib borildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, pektin kislota (pektin kislotasini 0,03 g/l) va bentonit bilan birgalikda kompozitsiyasi suspenziyani tindirish uchun qo‘llanilganda, tinish jarayoni tezlashib, susloni tiniqlik darajasi 78-85% ga yaxshilandi.

Dissertatsiyaning “O‘simlik ekstraktleri asosida tovarlar olish va ularni sinflash” deb nomlangan beshinchi bobi birinchi qismi *Nepeta Olgae Regel L.*, *Raphanus Sativus L.* va *Helianthus Tuberosus L.* o‘simliklari ekstraktleri asosida biologik faol qo‘shimchalar olishga bag‘ishlangan.

Nepeta Olgae Regel L., *Raphanus Sativus L.* va *Helianthus Tuberosus L.* o‘simliklarining kimyoviy komponentlari va biologik faolligini o‘rganish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida: o‘simlik ekstrakti asosida “ASZUFO” va “ASTOP” olingan yangi oziq-ovqat qo‘shilmalari uchun texnik yo‘riqnomalar (TY 203948386-02:2024), va (TY 203948386-03:2024) O‘zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologiya osoyishtalik va jamoat salomatligi nazorati tomonidan tasdiqlangan (O‘zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologiya osoyishtalik va jamoat salomatligi nazoratining 2024-yil 28-dekabrda 26-11 b-118 son xati). Natijada, yangi oziq-ovqat qo‘shilmalarini ishlab chiqarish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Tibbiyot bosh boshqarmasining Sanitariya-epidemiologiya nazorati boshqarmasi tomonidan sanitariya-epidemiologik (2025 yil 20 yanvardagi №020300-raqamli) xulosasi olindi.

“ASZUFO” va “ASTOP” oziq-ovqat qo‘shilmalarining sanitariya-gigienik, og‘ir metallar, bakteriologik va radiologik ko‘rsatkichlarini aniqlash O‘zR SanPin № 0333-19 p.6.9 talablari bo‘yicha amalga oshirildi (11-jadval).

11-jadval.

“ASZUFO” va “ASTOP” oziq-ovqat qo‘shilmasi ustida olib borilgan sanitariya- gigiena tekshiruvlari natijalari

№	Sinov korsatkichlari	Meyoriy hujjat bo‘yicha sinov usullari	Meyoriy hujjat bo‘yicha (mg/kg)	Haqiqiy qiymat bilan kengaytirilgan noaniqliklar P=95% k=2, mg/kg		Ko‘rsatkichning mosligi
				ASZUFO	ASTOP	
Og‘ir metallar						
1	Qo‘rg‘oshin	MK 8m/254-2011	10,0	0,98 ± 0,01	1,04 ± 0,01	Mos
2	Mishyak	MK 8m/254-2011	1,0	0,0	0,0	Mos
3	Kadmiy	MK 8m/254-2011	1,0	0,0	0,0	Mos
4	Simob	MK 8m/254-2011	0,1	0,0	0,0	Mos
5	Mis	MK 8m/254-2011	100,0	25,21 ± 0,05	9,04 ± 0,01	Mos
Xlororganik pestisidlar, mg/kg						
6	Karbofos	O‘zDSt 30710-2001	0,5	aniqlanmadi	aniqlanmadi	Mos
7	GXSG	O‘zDSt 30349-96	0,2	aniqlanmadi	aniqlanmadi	Mos
8	DDT	O‘zDSt 30349-96	0,2	aniqlanmadi	aniqlanmadi	Mos
Toksik-gigienik tekshiruv						
9	Aflotoksin B ₁	O‘zDSt 30711-2001	0,005	0,0000	-	Mos
Sanitariya - parazitologik tekshiruvlar						
10	Gelmint	MK № 012-3/0134	Ruxsat berilmagan	-	aniqlanmadi	Mos

11-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga tayanib aytish mumkinki, "ASZUFO" va "ASTOP" shifobaxsh oziq-ovqat qo'shilmalari barcha sanitariya gigiena talablariga to'liq javob beradi.

"ASZUFO" va "ASTOP" oziq-ovqat qo'shilmalarini Namangan viloyati Chortoq tumanida faoliyat olib borayotgan "BILLUR ARKON" xususiy korxonasida seriali ishlab chiqarish yo'lga qo'yilmoqda.

"ASTOP" oziq-ovqat qo'shilmasi yordamida qandli diabet kasalligiga chalingan bemorlarni davolashda, ushbu kasalikni davolashda keng qo'llaniladigan "Metformin" preparatiga nisbatan iqtisodiy samaradorligi hisoblab topildi. Natijada, 1 nafar bemorni bir oy davomida "ASTOP" oziq-ovqat qo'shilmasi yordamida davolash, "Metformin" preparatiga nisbatan 44 440 so'm iqtisod qilinishi mumkinligi kelib chiqdi. Qandli diabet kasalligiga chalingan bemorlarning aksariyati doimiy ravishda "Metformin"ni qabul qilishlarini hisobga olsak, bir nafar bemor bir yil mobaynida "Metformin" o'rniga "ASTOP" oziq-ovqat qo'shilmagini qo'llaganda yiliga 533 280 so'm iqtisod qilishi mumkinligi aniqlandi.

Lizotsim odatda parranda tuxumidan ajratib olingan. 100 g lizotsim ajratib olish uchun o'rtacha 90 dona parranda tuxumi kerak bo'ladi. Tuxumlarning o'rtacha narxi bilan hisoblanganda 100 g lizotsim olish uchun o'rtacha 100 000 so'm sarflanadi. 100 g lizotsimni turpdan ajratib olish uchun esa isrofgarchiliklarni hisobga olganda o'rtacha 11 kg turp sarf bo'ladi. Turpning o'rtacha narxi bilan hisoblanganda 100 g lizotsim olish uchun 55-60 ming so'm sarflanadi. Natija shuni ko'rsatdiki, 100 g lizotsimni turpdan ajratib olishda, parranda tuxumidan ajratib olishga nisbatan 40-45 ming so'm iqtisod qilinadi. 1 kg lizotsim ajratib olishda ushbu ko'rsatkich 400-450 ming so'mni tashkil etadi. Bu esa, lizotsimni turpdan ajratib olish, parranda tuxumidan ajratib olishga nisbatan qariyb 2 barobar arzonga tushayotganligini ko'rsatmoqda.

Dissertatsiyani V-bobining ikkinchi qismi "ASZUFO" va "ASTOP" oziq-ovqat qo'shilmalarini TIF TN bo'yicha sinflashga bag'ishlangan. Shu kungacha dorivor o'simliklar yoki ularning ayrim qismlaridan tayyorlangan oziq-ovqat qo'shilmalari TIF TN qoidalari asosida kimyoviy tarkibiga ko'ra sinflanmagan, hamda ularga tegishli xalqaro tovar kodlari berilmagan. Shuni inobatga olib ayrim dorivor o'simliklar asosida "ASZUFO" va "ASTOP" tabiiy, biologik faol qo'shimchalarni kimyoviy tarkibi bo'yicha sinflab, ularga tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi bo'yicha quyidagicha: "Oziq-ovqat maqsadlarida ishlatiladigan, boshqa joyda ko'rsatilmagan yoki kiritilmagan o'simlik mahsulotlari"ga 1212 99 subpozitsiyasi bo'yicha sinflab, "ASZUFO" va "ASTOP" biologik faol oziq-ovqat qo'shilmalari uchun 1212 99 95 01 tovar kod raqami ishlab chiqildi, hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona qo'mitasi tomonidan amalyotda qo'llanilishi uchun qabul qilindi.

XULOSALAR

1. Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar tahlili natijasida O‘zbekistonga o‘sadigan *Raphanus Sativus L.*, *Helianthus Tuberosus L.*, *Nepeta Olgae Regel L.* va *Ranunculus Repens L.* o‘simliklarining kimyoviy tarkibi, jumladan, oqsil miqdori, aminokislotalar, lipidlari, makro- va mikroelementlari, yog‘ kislotalari, flavonoidlari va polisaxaridlari kabi tabiiy birikmalari miqdori to‘liq o‘rganilmaganligi aniqlandi.

2. *Raphanus Sativus L.* o‘simligi ildiz mevasi organik tarkibi o‘rganilishi natijasida 16 ta hayotiy faoliyat uchun zarur aminokislotalarga boy ekanligi, shuningdek, neytral lipidlari tarkibida noyob to‘yinmagan yog‘ kislotalari: qora turpda 66,01%, oq turpda 56,21%, yashil turpda 21,21% miqdorda mavjudligi isbotlandi va ilk bor *Raphanus Sativus L.* o‘simligidan mavjud metodikalar yordamida lizotsim fermenti ajratib olindi.

3. *Raphanus Sativus L.* o‘simligini 5 ta navining, *Helianthus tuberosus L.* o‘simligi ildizmevasi po‘stlog‘i va ildizmevasi etli qismi tarkibidagi 35 ta makro va mikroelementlarning miqdori neytron aktivatsion tahlil usulida aniqlandi. Shu bilan birga, *Helianthus Tuberosus L.* o‘simligining ildizmevasidan inulin, pektin va gemitsellyuloza ajratib olinib, ularning tarkibi, tuzilishi sifat reaksiyalari va IQ-spektroskopik usulda isbotlandi, hamda pektin moddasining aksanit bentoniti bilan hosil qilingan kompozitsiyasi suslo suspenziyasini tindirish jarayonini tezlashtirib, suslarning tiniqlik darajasini 78-85 % ga yaxshilashi aniqlandi.

4. *in vitro* va *in vivo* sharoitda o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida *Raphanus Sativus L.* va *Helianthus tuberosus L.* o‘simliklaridan ajratib olingan lizotsim hamda inulin va pektin moddalari kalamush jigari mitoxondriyasida antioksidant va gipoglikemik faollikni namoyon qilishi isbotlangan.

5. Ilk bor tadqiq qilinayotgan o‘simliklardan ajratib olingan efir moylari tarkibi *GX-MS* usulida tekshirilganda, jumladan, Chust G‘ova tog‘ yon bag‘irlarida va Kosonsoy tog‘ yon bag‘irlarida uchraydigan *Nepeta Olgae Regel L.* o‘simligi efir moyi taribida mos ravishda 24 ta va 58 ta, *Ranunculus Repens L.* o‘simligi efir moylari tarkibida esa 62 ta modda mavjudligi isbotlandi. Shuningdek, ushbu hududlarda o‘suvi *Nepeta Olgae Regel L.* o‘simligi tarkibida glikolipidlar va fosfolipidlar mos ravishda 6,12% va 5,77 % miqdorda ekanligi, hamda ushbu lipidlar tarkibida 18 ta yog‘ kislotalari mavjudligi aniqlandi.

6. *Nepeta Olgae Regel L.* va *Ranunculus Repens L.* o‘simliklarining yer ustki qismi tarkibida mos ravishda 35 ta va 34 ta kimyoviy elementlar miqdori aniqlandi. Shuningdek, ushbu o‘simliklardan xromatografik usulda polifenollar inividual holatda ajratib olindi va ularning tarkibi YuSSX, tuzilishi ^1H -YaMR va ^{13}C -YaMR, HSQC va HMBC spektrlari yordamida isbotlandi.

7. *Nepeta Olgae Regel L.*, *Raphanus Sativus L.* va *Helianthus tuberosus L.* o‘simliklari ekstraktlari asosida “ASZUFO” va “ASTOP” yangi oziq-ovqat qo‘shilmalari yaratildi va ularni ishlab chiqarish uchun resept, texnik yo‘riqnomalar (TY 203948386-02:2024, TY 203948386-03:2024) ishlab chiqildi

va O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining Sanitariya-epidemiologiya osoyishtalik va jamoat salomatligi nazorati tomonidan tasdiqlandi.

8. “ASZUFO” va “ASTOP” oziq-ovqat qo‘shimalarining sanitariya-gigenik, og‘ir metallar, bakteriologik va radiologik ko‘rsatkichlarini aniqlash natijasida, ushbu ko‘rsatkichlarning O‘zR SanPin № 0333-19 p.6.9 talablariga mos ekanligi isbotlandi, hamda mazkur oziq-ovqat qo‘shimallari V zaharsiz moddalar guruhiga mansubligi tasdiqlandi.

9. “ASZUFO” va “ASTOP” tabiiy biologik faol oziq-ovqat qo‘shimalarini kimyoviy tarkibi asosida sinflab, ularga tashqi iqtisodiy faoliyatdagi tovarlar nomenklaturasi bo‘yicha quyidagicha: “turp (*Raphanus sativus* L.), topinambur (*Helianthus tuberosus* L.), zufo (*Nepeta olgae Regel* L.) va ayiqtovon (*Ranunculus repens* L.) dorivor o‘simliklar asosida ishlab chiqilgan, vitamin C va boshqa suvda eruvchan vitaminlar, kversetin, rutin, digidrokversetin, senerozid, salidrozd flavonoidlari, foydali aminokislotalar, moylar va ularning yog‘ kislotalarini saqlagan tabiiy oziq-ovqat qo‘shimallari” uchun – 1212 99 95 01 yangi xalqaro tovar kod raqami ishlab chiqildi va O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona qo‘mitasi tomonidan amaliyotda joriy qilindi.

10. “ASTOP” oziq-ovqat qo‘shimasi yordamida 1 yil davomida 1 nafar bemorni davolashda amaldagi sintetik preparatlarga nisbatan 533 280 so‘m iqtisod qilishi, shuningdek, *Raphanus Sativus* L. o‘simligi ildiz mevasidan 1 kg lizotsim ajratib olishda parranda tuxumidan ajratib olishga nisbatan o‘rtacha 400-450 ming so‘m iqtisodiy samaradorlik keltirishi asoslangan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ
DSc.03/29.10.2021.К/Т.60.05 ПРИ АНДИЖАНСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

НАМАНГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

DEXKONOV RAHMATILLA SULTONOVICH

**ПОЛУЧЕНИЕ И КЛАССИФИКАЦИЯ ЛЕКАРСТВЕННЫХ ТОВАРОВ
НА ОСНОВЕ РАСТЕНИЙ РЕДИС, ТОПИНАМБУР, КОТОВНИК И
ЛЮТИК**

**02.00.09 –Химия товаров
14.00.41– Народная медицина**

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ХИМИЧЕСКИХ НАУК (DSc)**

Андижан – 2025

Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована под номером В2025.1.DSc/K214 в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан

Диссертационная работа выполнена в Наманганском государственном университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском, английском (rezюме)) размещен на веб-сайте Научного совета (www.adu.uz) и информационно-образовательном портале "ZiyoNet" (www.ziyo.net).

Научный консультант: Аскарлов Иброхон Рахмонович
Доктор химических наук, профессор

Официальные оппоненты: Абдуллоев Обиджон Шахобиддинович
Доктор химических наук (DSc), профессор
Абдуганнев Бахтиёржон Ёрмухаммадович
Доктор химических наук (DSc), профессор
Тураев Зокиржон
Доктор технических наук, профессор

Ведущая организация: Ферганский государственный университет

Защита диссертации состоится "07" 07 2025 г. в 10⁰⁰ часов на заседании разового научного совета по присуждению учёной степени на основе научного совета DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 при Андижанском государственном университете (Адрес: 170100, г. Андижан, ул. Университет, 129. Тел.: (99877) 223-88-30, факс: (99874) 223-84-33).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Андижанского государственного университета (регистрационный номер № ____). (Адрес: 170100, г. Андижан, ул. Университет, 129. Тел.: (99877) 223-88-30, факс: (99874) 223-84-33; e-mail: agsuinfo@edu.uz).

Автореферат диссертации разослан "25" 06 2025 года.
(Протокол рассылки № 56 от "25" 06 2025 года).




Ш.М.Киргизов
Председатель Научного совета по
присуждению учёной степени, д.х.н.,
профессор

М.М.Муминжонов
Учёный секретарь Научного
совета по присуждению учёной
степени, д.х.н., доцент

М.М.Хожиматов
Председатель Научного семинара
при научном совете по присуждению
учёной степени, д.х.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (Аннотация докторской диссертации)

Актуальность и необходимость темы диссертации. В мире одной из актуальных проблем является выделение новых биологически активных веществ из лекарственных растений, которые могут быть полезными для здоровья человека, а также химический анализ их состава. В этой области важным является поиск новых видов растений, которые являются источниками природных лекарственных средств, выделение из них биологически активных соединений, определение их состава и структуры, создание на их основе эффективных лекарственных средств и биологически активных добавок, а также их применение в медицине.

В мировой практике проводятся научные исследования по разработке и определению химического состава синтетических препаратов и натуральных пищевых добавок для лечения сложных заболеваний, связанных с иммунной и сердечно-сосудистой системой в организме человека. В связи с этим выявление сортов растений, содержащих природные химические соединения, стимулирующие защитные системы организма от различных инфекций, способствующие насыщению крови кислородом, остановке развития различных раковых клеток, омоложению организма, укреплению иммунитета; разработка и производства на их основе натуральных биологически активных пищевых добавок, применяющихся в народной медицине наряду с синтетическими препаратами, классификация их по ТН ВЭД и внедрению в практику уделяется особое внимание.

В нашей республике в разрабатываются натуральные пищевые добавки на основе растений, обладающих свойствами профилактики и лечения заболеваний, связанных с сердечно-сосудистой, иммунной системы и дыхательных путей организма человека, достигнуты определенные результаты в плане классификации на основе их химического состава. В стратегии развития нового Узбекистана¹ определены важные задачи по реализации “увеличения предложения на продовольственных и непродовольственных рынках и устранения сезонного дефицита”. Исходя из этих задач, создание натуральных и безвредных пищевых добавок на основе местных лекарственных растений, содержащих соединения с антиоксидантными свойствами и полезных для организма человека, а также изучение их химического состава, структуры и свойств, разработка и внедрение товарных кодов по ТН ВЭД имеет важное научное и практическое значение.

Данное исследование в определенной степени будет способствовать реализации задач, обозначенных в Постановлении Президента Республики Узбекистан от 12 октября 2018 года №ПП-3968 «О мерах по регулированию сферы народной медицины в Республике Узбекистан», Указе от 28 января 2022 года №ПФ-60 «О стратегии развития нового Узбекистана», Указе от 7

¹Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № ПФ-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана».

ноября 2017 года №ПФ-5229 «О мерах по коренному совершенствованию системы управления фармацевтической промышленностью» и в других нормативных правовых документах и результаты данного диссертационного исследования в определенной мере послужат реализации поставленных задач.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и техники Республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий в республике: VII “Химические технологии и нанотехнологии”.

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации¹.

Получение биологически активных пищевых добавок из лекарственных растений и проведение научных исследований по их изучению осуществляется в ведущих мировых научных центрах и высших учебных заведениях, в том числе на Institute of Chemistry, University of Ciudad, Mexico Laboratory of Neuropharmacology of Natural Products (Испания), National Institute of Psychiatry Ram' on de la Fuente Muniz. Spain Department of Inorganic Chemistry (Испания), University of Chester (Великобритания), Department of Biotechnology and Food Sciences, (Норвегия), University of Glasgow (Шотландия), Agriculture and Biology, Shanghai Jiao Tong University, (Китай), Nestle Institute of Food Sciences, Nestle Research Center (Швейцария), Wageningen University and Research (Нидерланды), Lovely Professional university (Индия), Zhengzhou Research Base, University Zhengzhou (Китай), Marmara University, Faculty of Pharmacy (Турция), Institute for Sustainability and Circular Economy, Texas Tech University (США), Московский государственный университет (Россия), Центр этно-медицинской инженерии и технологий Синьцзяньского университета, Народного университета Китая, Инновационный центр «Природные продукты Китая и Таджикистана» Национальной АН Таджикистана, Национальном университете Узбекистана, Институт биоорганической химии, Институт химии растительных веществ АН Узбекистана.

Ряд результатов получен в результате исследований по определению и обработке химического состава лекарственных растений: в том числе получены лекарственные соединения на основе лекарственных растений (University of Ciudad, Mexico Laboratory of Neuropharmacology of Natural Products, Испания); разработаны методы определения количества макро- и микроэлементов в сортах лекарственных растений (Dipartimento di Chimica Industriale “Toso Montanari”, Università di Bologna, Италия); натуральные пищевые добавки, богатые микроэлементами, получены на основе лекарственных растений (Bialystok University of Technology, Faculty of Civil Engineering and Environmental Sciences, Department of Chemistry, Польша); создана технология обогащения пищевых продуктов растительными

²Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi <http://www.scholar.google.com>, <http://www.sciencedirect.com>, <http://dmpe.aut.ac.ir> <http://www.ichp.pl> va boshqa manbaalar materiallari asosida tayyorlangan.

экстрактами, содержащими природные биологически активные соединения (Wageningen University and Research, The Netherlands, Lovely Professional University, Индия); Разработаны методы выделения соединений с противовирусным действием из растений (State Key Laboratory of Coordination Chemistry, Nanjing University (Китай); определены состав и структура соединений, содержащихся в некоторых местных сортах растений (Институт химии растительных веществ, Узбекистан).

В мире активно ведутся научные исследования по разработке натуральных препаратов из лекарственных растений для профилактики и лечения заболеваний сердечно-сосудистой и иммунной систем. Основные направления включают экстракцию биологически активных веществ, определение их состава и свойств, изучение биологической активности, выделение флавоноидов, обогащение продуктов питания растительными экстрактами, а также создание пищевых добавок и фитопрепаратов.

Степень изученности проблемы. Во многих ведущих научных центрах и университетах мира проводились научные исследования по извлечению биологически активных веществ из лекарственных растений, созданию биологически активных соединений, пищевых добавок.

Среди них Л.Сазановой, А.Р.Станкевичем, Е.А.Власовой, А.Н.Тонамаревым, А.А.Федоровым, З.Т.Артюненко, Кирпичниковым, Г.П.Яковлевым, Т.Резанкой (Чехия), В.Н.Шибяевым, А.А.Раде, Уориком, А.В.Санин проводили исследования по выделению и анализу биологически активных веществ из растений *Raphanus Sativus L.* и *Helianthus Tuberosus L.*, П.Бхардваном, А.Нарьялом, С.Саксена, М.Окасакой, Ф.Рамосом, Чжи-Юанем, Вэй-Мингом, Курмаковым А.Г., Белолиповым И.В., Ореховым А.П., Кузьменко И.Н., Родионовой Т.Н., Меленовой Г.А., Антоновой Л.А., Вергейчиком Е.Н., Матхуром К., Ганеевой Л.А., Васфиловой Е.С., Сутаром П., Манфредом Хессе, Тадеушем Анишецким, Думачевой Е.В., Красильниковой Л.А., Шан С., Хе С., Ли М., Чжаном Р., То Дао Куонгом, Тран Манх Хунгом, Джу-Сангом Ли, занимались исследованием химических соединений растения *Nepeta Olgaе Regel L.*, их биологической активности и механизмов воздействия, О.С.Содиков, А.Х.Хаитбаев, Е.Т.Бердиев, М.Х.Хакимова, Г.Б.Махмудова, Е.Т.Ахмедов, Х.Н.Арипов, В.М.Маликов, С.Ф.Арипова, А.Набиев, Е.Х.Ботиров, И.Р.Асқаров, А.А.Ибрагимов, Ш.В.Абдуллаев, Ш.Ш.Сагдуллаев, Е.Н.Новрузов (Узбекистан) проводили научные исследования по растениям семейства *Brassicaceae*, *Asteraceae* и *Lamiaceae* и других лекарственных растений, их химическому составу, а также участию некоторых компонентов в биохимических процессах.

На сегодняшний день, несмотря на наличие данных о применении различных вегетативных органов растений, их экстрактов, а также отдельных биологически активных и химических субстратов в качестве пищевых добавок, компоненты растений *Raphanus sativus L.*, *Helianthus tuberosus L.*, *Nepeta Olgaе Regel L.* и *Ranunculus Repens L.*, а также других лекарственных видов, остаются недостаточно изученными. Разработка новых биологически

активных добавок с уникальными брендами на основе их состава практически не проводилась, как и создание новых товарных позиций в ТН ВЭД, основанных на их химических характеристиках.

Данная научно-исследовательская работа посвящена разработке и исследованию биологически активных пищевых добавок на основе компонентов (эфирные масла, листья и цветки) в частности, выращенным в местных условиях лекарственных растений *Raphanus Sativus L.*, *Helianthus Tuberosus L.*, а также дикорастущим на территории нашей республики и особенно в Намаганской области *Nepeta Olgae Regel L.* и *Ranunculus Repens L.* способствующих повышению активности иммунной системы, улучшения насыщения крови кислородом, стимуляции аппетита и пищеварения, нормализации работы кишечника, повышения устойчивости организма к неблагоприятным факторам окружающей среды, а также укрепления защитных сил против инфекций, устранения воспалений и простудных состояний; определение химического состава указанных растений и разработку новых товарных кодов по ТН ВЭД.

Связь темы диссертации с планами научных исследований научно-исследовательского учреждения, в котором выполнена диссертация. Диссертация исследования проводилась в рамках научно-исследовательской работы "Изучение физиологически активных веществ местных растений" Намаганского государственного университета.

Цель исследований: разработка новых видов биологически активных пищевых добавок на основе растений *Raphanus Sativus L.*, *Helianthus Tuberosus L.*, *Nepeta Olgae Regel L.* и *Ranunculus Repens L.*, разработка новых товарных кодов ТН ВЭД на основе их химического состава и свойств.

